



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:22-10-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 22311

Obyekt nomi «Namangan shahridagi Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK471+45 dan PK481+10 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish»

Buyurtmachi - "NAMANGANSUVQURILISH INVEST" davlat muassasasi

Bosh loyihachi - "SUVLOYIXA" DUK Namangan filiali

Litsenziya AL-000694 30.04.2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 20452

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5084-sonli qarori.

1.2. Namangan viloyati Hokimining 2021 yil 1 maydagi 284-sonli qarori.

1.3. Namangan viloyat Hokimining o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.4. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021 yil 4 iyuldagi 1714-1714401-23759-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.5. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 19.07.2021 yildagi 7-sonli shartnoma.

1.6. "Shimoliy Farg'ona magistral kanali" boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan ob'ektning nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK471+45 dan PK481+10 gacha bo'lgan qismi bosh rejasi, qirqimlar va tugunlar, chizmalar va qaydnomalar, yoritish tizimi va elektr ta'minoti.

- Sug'orish tizimi (Tushuntirish yozuvi, bosh reja, chizmalar va qaydnomalar).

- Ko'kalamzorlashtirish (Tushuntirish yozuvi, bosh reja, ish xajmi qaydnomalari).
- Kichik me'moriy inshootlar.
- Smeta hujjatlari.
- O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi "O'zsuvekspertiza" DUKning 2021 yil 22 iyundagi 234-sonli xati.
- "Shimoliy Farg'ona magistral kanali" boshqarmasining 2021 yil 10 sentabrdagi №01/05-140 sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyihani maksadi.

Namangan viloyati Namangan shahri hududidan oqib o'tuvchi "ShFMK" kanalini PK471+45 dan PK481+10 gacha bo'lgan qismida kanal qiyaliklarini yaxlit beton qoplama bilan mustahkamlab, kanaldan suv sizishini (filtratsiyani) kamaytirish, kanalni 1,305 km qismining texnik holatini yaxshilash hamda chap va o'ng qirg'oqdagi maydonni obodonlashtirish loyihalangan.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Kanal.

Loyihada PK471+45 dan PK481+10 gacha "ShFMK" filtrlashni kamaytirish va kanalning o'ng va chap qirg'oqlarida 0,965 uzunligi qismining texnik holatini yaxshilash, o'ng va chap yonbag'irlarini t-20mm.qalinlikda V15 markali yaxlit beton bilan qoplash ko'zda tutilgan.

2.Piyodalar va velosiped yo'laklari.

Loyihada piyodalar zonasi va veloyo'laklar uchun beton plitkadan jami 3178 m2 yo'lak qurish ko'zda tutilgan, shu jumladan - 1986 m2 piyodalar zonasi va 1192 m2 - veloyo'laklar. Bundan tashqari uzunligi 1324 metr temir-beton bordyurlar o'rnatish va 5958 m2 asfaltobeton qoplamasi qoplash nazarda tutilgan.

3. Sug'orish tarmog'i.

Loyihada sug'orish tizimini qurish ko'zda tutilgan bo'lib, turli xil diametrdagi plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Quvurlarni yotqizish chuqurligi 0,3 metrni tashkil etadi. Tarmoqda metall quvurdan kameralar o'rnatish ko'zda tutilgan. Sug'orish uchun suv purkagichlar o'rnatish loyihalangan. Sug'orish tizimini tashkil etish uchun individual loyiha asosida nasosxona binosi qurish nazarda tutilgan.

4. Tashqi yoritish tizimi.

Loyixalanayotgan tarmoqda turli kesimdagi AVVG markadagi kabellar ko'zda tutilgan. Kabellar 0,5-0,7 metr chuqurlikda yotqiziladi. Tarmoq kuchlanishi - 0,4kv. Ko'cha yo'llarini yoritish uchun metall tayanchlarga o'rnatilgan "LED" chiroqlar bilan bajarish nazarda tutilgan.

5. Qo'klamzorlashtirish.

Loyihada 496 dona manzarali ko'chatlar ekish va 1986 m2 maydonni ko'kalamzorlashtirish ko'zda tutilgan.

6. Yordamchi bino va inshootlar.

Loyihada 3 dona uycha, 2 dona "Workout" maydoni, metall panjara qurish, shuningdek skameykalar hamda biohojatxona o'rnatish ko'zda tutilgan.

3.3. Asosiy ko'rsatkichlari.

- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismining uzunligi - 0,965 km;
- Obodonlashtiriladigan umumiy maydon - 11164 m²;
- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismida suv o'tkazish qobiliyati - 110 m³/sek.

3.4. Qurilish davomiyligi.

Obodonlashtirish davomiyligi - 7,5 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Sug'orish tizimi suv ta'minoti* – Shimoliy Farg'ona magistral kanalining 6.09.2021 yildagi 01/05-139-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib ShFMK qabul qilingan.

4.2. *Elektr ta'minoti* – “Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” Ajning 24.09.2021 yildagi 35-18/1323-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 35/6 kVli “Davlatobod”dan chiqqan 6 kVli “Olmos” elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPk-25/10/0,4 kv va AIIKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja Shimoliy Farg'ona magistral kanali boshqarmasi, “Norin-Sirdaryo” ITHB, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Namangan shahar obodonlashtirish boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan.

- Yoritish tizimi va elektr uzatish tarmog'i rejasi Davlatobod tumani elektr ta'minoti korxonasi bilan kelishilgan.

- “Norin-Sirdaryo” ITXB boshlig'i tomonidan tasdiqlangan texnik Kengash bayoni.

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 21.10.2021 yildagi 01-19/01-1066-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarining izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining xulosasi – olindi.

6.1.2. Piyodalar yo'lakchasida asfalt qoplama qalinligi – o'zgartirildi.

6.1.3. Asfalt qoplama yo'lagida yog'ingarchilik suvini yo'naltiruvchi nishablik – berildi.

6.1.4. Loyihaning bosh reja “1-1” qirqimda piyodalar va avtomobil asfalt yo'lagi balandlik satxlari – o'zgartirildi.

6.1.5. “OS-1” va “OS-3” “bortovoy stenka” bilan piyodalar yo'lagi birikish chizmasi – berildi.

6.1.6. Nasosxona loyihasida fundament devori chizmasi – o'zgartirildi.

6.1.7. Nasosxona loyihasida o'zgarma $\pm 0,000$ satxi – to'g'rilandi.

Kanal.

6.1.8. Kanalining suv sarfi xaqidagi ma'lumot – berildi.

6.1.9. Bosh rejada “Reper” – ko'rsatildi.

6.1.10. Bo'ylama qirqim chizmasi – taqdim etildi.

6.1.11. Hidravlik hisob – taqdim etildi.

6.1.12. Yer ishlari va betonlarni xajmlarini hisoboti – taqdim etildi.

6.1.13. Armatura sarfi, otkoslarni betonlash ishlari hisoboti – taqdim etildi.

Sug'orish tarmog'i.

6.1.14. Topotasvir hujjatlari ishlab chiquvchi tomonidan – tasdiqlandi.

6.1.15. Sug'orish tarmog'i bosh rejasi – kelishildi.

Elektr qismi.

6.1.16. Loyiha yechimi «NXET» AJning 24.09.2021 yildagi 35-18/1323-sonli texnik shartni 4-bandi muvofiq – o'zgartirildi.

6.1.17. Kabel jurnalda yuqori kuchlanishli kabel tarmoqlari – ko'rsatildi.

6.1.18. Bir chiziqli chizmada ulanish nuqtasi – ko'rsatildi.

6.1.19. Nasosxona va uychani elektr yoritish rejasida hisob-montaj sxemasi – ishlab chiqildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 11059613,137 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 62774,591 ming so'mga kamaytirilib, **10996838,546 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: 8882796,386 ming so'm.

Asbob-uskunalar: 297728,371 ming so'm.

QQS: 1377078,714 ming so'm.

Buyurtmachining boshqa xarajatlari: 439235,075 ming so'm.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan shahridagi Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK471+45 dan PK481+10 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ekspertlar: A.Xoshimov, S.Madraximov, Sh.Jalilov, T.Maxkamov

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich